

MIFOLOGIK TASAVVURLAR

Ismatillayev Ilhomjon Shamsiddin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonlarni e'tiqodiy qarashlarni ya'ni tabiatga va narsalarga bo'lgan qarashlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Baroq, obraz, personaj, magik, e'tiqod, anqo, kokil tuyi.

"Mif" qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasidir. Mifologik tasavvurlar olamning yaratilishi, o'simlik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo'lishini xayoliy uydirma vositasida izohlasada, mif o'z ijodkori va ijrochilar tomonidan bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida baholangan.

Miflar og`zaki hikoya qilishga, gapirib berishga, bayon etishga mo'ljallanganligi sababli og`zaki nasr namunalarini qatoriga kiritiladi. Ularda muayyan bir qisqa syujet bayon etiladi, mo'jizaviy voqelik tafsili ustunlik qiladi. Xalq prozasining badiiy shakl tiplaridan biri bo'lgan miflar, asotirlar nomi bilan ham yuritiladi. "Mif" so'zi aslida grekcha "mythos soyat" so'zidan olingan. O'zini o'rabi turgan tashqi olamni va unda yuz beruvchi hodisalar sababini bilishga qiziqqan ibtidoiy odam uni obrazli tasavvur qilgan. Masalan: alvasti, ajina va yalmog`iz (qari kampir korinishida)".[1]

"Demak, mifologik obrazlarning barchasida umumiy belgilar bor. Bular:

Baxt belgisi (semurg, humo, Xizr);

Qarilik belgisi (alvasti, ajina, yalmog`iz, ayamajuz);

Yonish belgisi (samandar, qaqnus);

Zyon belgisi (dev, jin, g`ul, ajina, alvasti);

Echki qiyofasi (shayton, iblis, jin);

Quvlik belgisi (yalmog`iz, shayton);

Yamlamay yutish (ajdar, yalmog`iz);

Go'zallik belgisi (malak, farishta, pari, jannat)"[2].

Baroq - serjun it. Turkiy xalqlar e'tiqodiga ko'ra, burgut qariganda ikkita tuxum qo'yar emish. Tuxumlarning biridan o'sha baroq otli kuchuk paydo bo'lar emish. Itlarning eng tez yuguradigani va ovni qattiq saqlaydigani shu baroq itdir. Ikkinchisi tuxumdan jo'jasib chiqar emish. Bu uning jo'jalarining oxirgisi bo'lar emish. Demak, qadimgi turkiylarning mifologik e'tiqodlariga ko'ra, "baroq" so'zi g`ayrioddiy ravishda paydo bo'ladigan, yani burgut tuxumidan chiqqan afsonaviy it nomidir.

Anqo - Ko'hi Qofda yashaydigan afsonaviy qush bo'lib, barcha qushlarning podshosidir. «Navoiy asarlari lug`ati»da Anqo so'ziga shunday ta'rif berilgan: Anqo - oti bor, o'zi yo'q, afsonaviy qush go'yo qushlarning podshosi bo'lib, Ko'hi Qof tog`ida yashar emish.

Kokil toyi -deb atalgan bu marosim odatda oila davrasida, qo'ni-qo'shnilar va qarindoshlar bilan birgalikda o'tkaziladi. Qirqib olingan haydarni devor yorig'iga yoki tol

tagiga ko'mishgan. Xalq qarashlariga ko'ra, bolaning sochi tol tagiga ko'milsa, o'sha bola tolga o'xshab tez o'sar emish.

Yulduz botishi yoki yulduz uchishining- kishi olam bilan bog`liqligi motivi o'zbek xalq marosim qo'shiqlarida ham uchraydi:

Havodagi qirq yulduz,
Havolab ketdi botgani,
Shunday arzanda akam,
Qiyomat ketdi yotgani.

Sehrli yol (tuk, qil) - tutatilganda baxt, omad ato etuvchi magik vosita sifatida talqin etiladi.

Kiyik kulti- Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi mifologiyasida astral-kosmik ishonchlarni o'zida mujassamlashtirgan ohu, echki kulti, hosildorlik va qut-baraka g`oyasini aks ettiruvchi jonzot sifatida talqin qilingan. Xorazm vohasidan yozib olingan afsonalarda kiyik obrazi suv va serhosillik timsoli hisoblangan. Ambar bilan bog`liq holda tasvirlanishi ham shu fikrni tasdiqlaydi.

Tovus - obrazi o'zbek mifologiyasining an'anaviy, asotiriy personajlaridan biri bo'lib, ezgulik, go'zallik, nafosat va osoyishtalik timsoli sifatida tasavvur qilingan. Bu qushning mifologik timsolga aylanishiga uning tashqi ko'rinishi, yani turli xil rangda tovlanadigan jozibador patlari, nafisligi, chiroyliligi asos bo'lgan.

Tuya- ezgu kuch timsoli deb tasavvur qilishga asoslangan mifologik qarashlarning izlari, xalq qarashlari, folklor asarlari va etnomadaniy qadriyatlar tizimida bugungi kunga saqlanib qolgan. Xususan, Nurotaliklar e'tiqodicha, vafot etgan ulug` kishilarning ruhi tuya ko'rinishida namoyon bo'lar emish. Tuya poklik, halollik, adolatlilik mezoni ham sanaladi. Xalqimizda tuyani so'kish, urish, unga ozor yetkazish katta gunoh deb qaraladi. Tuya junini ajina, alvasti kabi yovuz kuchlarni haydovchi magik vosita deb tasavvur qilinadi.

Bo'ri haqidagi miflar-bo'ri xuftondan sahargacha jin bo'lar ekan. Jin kech payti ko'p bo'lar emish, bo'ri og`zini ochsa, jin o'zi kirib ketar emish. «Bo'ridayin bo'rtib jo'rt». «Boylar hamyoniga bo'rining oshig`ini taqib qo'ygan». «Bo'rining jag`ini tumor qilib, qiz bolalar, ayollar bo'yniga taqib yurgan, bunga haykal ham deyilgan». «Bo'rini ushlab olsa, ayollar ustidan hatlagan». «Har bir ishda foyda ko'rsa, «bo'ri ko'rdingmi?» degan». «Bo'ri chilla tushibdi». «Xotin tuqqandan keyin chillasi ichida o'ngida bo'ri ko'rsa, ko'p yillar tug`mas emish». «Bo'rining bolasini ushlab olsa, qishloqqa ziyon bo'ladi, mol qolmaydi». «Bo'ri uyasidan og`zini ochib chiqadi, «Qarishqul» desa og`zini yopib chiqadi». «Qarish-qarish!» - desa og`zi ochilmas emish». «Bo'ridayin olg`ir bo'lsin, bo'ridayin bo'rtib yursin deb, «Bo'riboy» deb ot qo'yadi. «Qarishqul, jondor, uluma deyiladi». «Bo'ri olgan yerning tuprog`idan keltirib kasalga ichiriladi». «Bo'rining suyagi, go'shtini ham bo'lishib olib, ishlatadilar». «Bo'ri bolalasa, yaxshi yil bo'ldi, ekin bo'ladi deydilar.

XULOSA

Xulosa qilib, shuni aytish kerakki, miflarni o'rganishdan maqsad insoniyatda qanday o'zgarishlar bo'layotgani , tabiat, o'simlik, narsa buyum, jonivorlarni qanday magik ahamyatga ega ekanligini bilish kerak. Qadimda insonlar qanday kuchlarga sig'ingani, e'tiqod qilgani tabiat kuchlarga munosabati qanday bo'lganini mana shu miflar orqali

o'rganishimiz mumkin. Miflarga ishonish faqat o'tgan zamonda bo'lgan desak adashamiz hozirda ham miflarga qarashlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Abdullaev H. Xorazm afsonalarida mifologik izlari // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1984. 1-son.
- 2.Akramov G. Animatik mifologiya // O'zbek tili va adabiyoti. 1977. 3-son. B.48-53;